



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent shahrida  
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **84,6** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,7** mingtaga ko‘paygangan yoki **2,1 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **28,7** birlikni tashkil qildi.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning yanvar-iyunida **8,0** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

**2020-2024-yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
82 237	Toshkent sh	84 686
7 103	Uchtepa t	6 902
2 302	Bektemir t	2 518
9 846	Yunusobod t	9 951
9 539	Mirzo Ulug'bek t	9 968
6 712	Mirobod t	7 027
7 634	Shayxontohur t	7 497
8 140	Olmazor t	8 015
4 622	Sirg'ali t	5 104
7 274	Yakkasaroy t	7 620
7 040	Yashnabod t	7 508
2 076	Yangihayot t	2 576
9 949	Chilonzor t	10 000

2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **84 686** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8 034** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida **10 000** tani yoki jamiga nisbatan **11,8 %** ni tashkil etdi.


## 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)\*

Toshkent sh.	28,7
Uchtepa	24,2
Bektemir	40,5
Yunusobod	27,5
Mirzo-Ulug'bek	30,9
Mirobod	48,6
Shayxontohur	21,5
Olmazor	20,6
Sirg'ali	30,3
Yakkasaroy	58,5
Yashnobod	25,7
Yangihayot	14,2
Chilonzor	37,8
	10,0



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1-iyul holatiga, birlikda



2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **28,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **1,9** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,5** birlik, Mirobod tumanida **48,6** birlik, Bektemir tumanida **40,5** birlik, Chilonzor tumanida **37,8** birlik va Mirzo Ulug'bek tumanida **30,9** birlikka yetdi.


\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich

Yakkasaroy tumani  
– 58,5 birlik.




## O'rta ko'rsatkich

Sirg'ali tumani  
– 30,3 birlik.



## Eng past ko'rsatkich

Yangihayot tumani  
– 14,2 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,5** birlik, Mirobod tumanida **48,6** birlik, Bektemir tumanida **40,5** birlik, Chilonzor tumanida **37,8** birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida **30,9** birlik, Sirg'ali tumanida **30,3** birlikda kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariغا muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2024-yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Yakkasaroy tumani

58,5

### Bektemir tumani

40,5

### Mirzo-Ulug'bek tumani

37,8

48,6

30,9

Mirobod tumani


Chilonzor tumani

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.		2024- y.
8 210	Toshkent sh	8 034
517	Uchtepa	569
198	Bektemir	198
940	Yunusobod	926
1083	Mirzo-Ulug'bek	968
732	Mirobod	629
673	Shayxontohur	680
758	Olmazor	730
509	Sirg'ali	541
731	Yakkasaroy	756
784	Yashnobod	733
351	Yangihayot	398
934	Chilonzor	906
770		663

2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek tumani – **12,0** %, Yunusobod – **11,5** %, Chilonzor tumani – **11,2** %, Yakkasaroy-**9,4** %, Yashnobod – **9,1** % va Olmazor tumanlari– **9,0** %, Shayxontohur tumani – **8,4** %, Mirobod tumani– **7,8** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **3 087** ta, sanoatda **747** ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida **750** ta yangidan tashkil etilgan.


Toshkent shahrining tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Mirzo-Ulug‘bek tumanida **968** ta, Yunusobod tumanida **926** ta, Chilonzor tumanida **906** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida Toshkent shahrida 2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida jami **8 034** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar xizmatlar sohasida – **1 699** (yoki **42,7 %**) ta, savdo sohasida – **3 087** (yoki **38,4 %**) ta, sanoat sohasida – **747** (yoki **9,2 %**) ta, qurilish sohasida – **564** (yoki **7,0 %**) ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **65** (yoki **0,8 %**) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **49,7** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **3,7** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.





## 2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **80,3** % ni, qurilishda **76,5** % ni, yo‘lovchi tashishda **73,6** % ni, yuk aylanmasida **59,8** % ni, chakana savdoda **59,7** %, investitsiya **45,5** % ni tashkil etdi.





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mld. so‘m**

Toshkent sh.	<b>9 535,5</b>
Uchtepa	<b>753,7</b>
Bektemir	<b>793,1</b>
Yunusobod	<b>642,5</b>
Mirzo-Ulug'bek	<b>563,2</b>
Mirobod	<b>535,9</b>
Shayxontohur	<b>556,1</b>
Olmazor	<b>1 364,3</b>
Sirg‘ali	<b>954,5</b>
Yakkasaroy	<b>695,1</b>
Yashnobod	<b>1 147,0</b>
Yangihayot	<b>548,9</b>
Chilonzor	<b>981,2</b>

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 535,5** mld. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (**1 364,3** mld. so‘m), Yashnobod tumani (**1 147,0** mld. so‘m), Chilonzor tumani (**981,2** mld. so‘m), Sirg‘ali tumani (**954,5** mld. so‘m) va Bektemir (**793,1** mld. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Mirobod tumani (**535,9** mld. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


## 2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyunida tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (14,3 %), Yashnabod tumani (12,0 %), Chilonzor tumani (10,3 %), Sirg‘ali tumani (10,0 %), Bektemir tumani (8,3 %) va Uchtepa tumani (7,9 %) tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



**2024- yilning yanvar-iyunida tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi**

Toshkent sh.	<b>5 907,5</b>	<b>76,5</b>
Bektemir	<b>161,5</b>	<b>83,0</b>
Mirzo Ulugʼbek	<b>1 041,3</b>	<b>92,2</b>
Mirobod	<b>623,4</b>	<b>68,5</b>
Olmazor	<b>459,7</b>	<b>72,5</b>
Sirgʼali	<b>259,9</b>	<b>82,7</b>
Uchtepa	<b>228,1</b>	<b>94,1</b>
Chilonzor	<b>569,2</b>	<b>86,5</b>
Shayxontohur	<b>250,0</b>	<b>39,7</b>
Yunusobod	<b>752,8</b>	<b>59,5</b>
Yakkasaroy	<b>656,3</b>	<b>86,0</b>
Yangihayot	<b>150,7</b>	<b>88,9</b>
Yashnobod	<b>754,4</b>	<b>92,3</b>


hajmi, mlrd. soʻmda ↑  
ulushi, % da ↑

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5 907,5** mlrd soʻmmi yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,5** % ini tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **108,7** % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo Ulugʼbek (**1 041,3** mlrd. soʻm), Yashnobod (**754,4** mlrd. soʻm), Yunusobod (**752,8** mlrd. soʻm), Yakkasaroy (**656,3** mlrd. soʻm), Mirobod (**623,4** mlrd. soʻm), Chilonzor (**559,2** mlrd. soʻm) hamda Olmazor (**459,7** mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7 761,4** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **45,5 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **131,0 %** ni tashkil qildi.


Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Yakkasaroy (**1 200,6** mlrd. so‘m), Shayxontohur (**925,6** mlrd. so‘m), Olmazor (**900,7** mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (**810,8** mlrd. so‘m), Chilonzor (**800,5** mlrd. so‘m), Yunusobod (**694,8** mlrd. so‘m), Yashnobod (**598,3** mlrd. so‘m) hamda Uchtepa (**486,9** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi

Toshkent sh



■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 324,4** mlrd. so‘nni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **59,7 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.


## 2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

‘oshkent sh.	<b>11 324,4</b>	<b>59,7</b>
Uchtepa	<b>1 436,6</b>	<b>81,1</b>
Bektemir	<b>599,4</b>	<b>87,0</b>
Yunusobod	<b>1 317,9</b>	<b>60,3</b>
Rzo Ulug‘bek	<b>788,4</b>	<b>54,7</b>
Mirobod	<b>518,2</b>	<b>38,0</b>
Shayxontohur	<b>1 119,1</b>	<b>53,5</b>
Olmazor	<b>900,3</b>	<b>59,3</b>
Sirg‘ali	<b>492,2</b>	<b>48,7</b>
Yakkasaroy	<b>1 080,0</b>	<b>59,3</b>
Yashnobod	<b>855,9</b>	<b>49,7</b>
Yangihayot	<b>151,7</b>	<b>60,4</b>
Chilonzor	<b>2 064,8</b>	<b>66,3</b>

hajmi, mlrd. so‘mda      ↑  
ulushi, % da      ↑


Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (**2 064,8** mlrd. so‘m), Uchtepa (**1 436,6** mlrd. so‘m), Yunusobod (**1 317,9** mlrd. so‘m), Shayxontohur (**1 119,1** mlrd. so‘m), Yakkasaroy (**1 080,0** mlrd. so‘m), Olmazor (**900,3** mlrd. so‘m) va Yashnobod (**855,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## 2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



**2024- yilning yanvar-iyunida tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda**

Toshkent sh.	20 017,4
Uchtepa	973,1
Bektemir	743,5
Yunusobod	2 258,42
Mirzo-Ulug’bek	2 332,1
Mirobod	2 527,6
Shayxontohur	1 664,5
Olmazor	1 764,6
Sirg’ali	1 036,6
Yakkasaroy	2 390,5
Yashnobod	1 663,0
Yangihayot	540,0
Chilonzor	2 123,5

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **20 017,4** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **38,3 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,1 %** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Mirobod (**2 527,6** mldr. so‘m), Yakkasaroy (**2 390,5** mldr. so‘m), Mirzo Ulug’bek (**2 332,1** mldr. so‘m), Yunusobod (**2 258,2** mldr. so‘m), Chilonzor (**2 123,5** mldr. so‘m), Olmazor (**1 764,6** mldr so‘m) va Shayxontohur (**1 664,5** mldr. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari  
(yanvar-iyun oylarida)

7 895,2	Savdo xizmatlari	39,4
4 972,4	Transport xizmatlari	24,8
1 594,6	Boshqa xizmatlar	8,0
1 205,9	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6,0
1 101,9	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar	5,5
839,6	Ko‘chmas mulk bilan bog’liq xizmatlar	4,2
615,2	Ijara xizmatlar	3,1
403,2	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,0
361,3	Shaxsiy xizmatlar	1,8
315,1	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	1,6
279,5	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,4
233,2	Moliyaviy xizmatlar	1,2
200,2	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	1,0

*Hajmi, mlrd. so‘mda*


*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **39,4 %** (7 895,2 mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **24,8 %** (4 972,4 mlrd. so‘m), boshqa xizmatlar – **8,0 %** (1 594,6 mlrd. so‘m) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **6,0 %** (1 205,9 mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi kompyuter va maishiy tavarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarda **1,0 %** (200,2 mlrd so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



## 2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Bo'shkent sh.	214,0	21,6
Uchtepa	12,9	29,3
Bektemir	9,6	70,1
Yunusobod	24,8	21,2
Mirzo Ulug'bek	13,7	37,4
Mirobod	14,2	6,0
Hayxontohur	8,7	11,7
Olmazor	27,4	48,4
Jog'ali	19,3	20,0
Yakkasaroy	33,2	17,3
Yashnobod	25,7	27,8
Yangihayot	8,8	20,5
Chilonzor	18,4	21,1

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **241,0** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **21,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bektemir tumanida – **70,1** %, Olmazor tumanida – **48,4** %, Mirzo Ulug'bek tumanida – **37,4** %, Uchtepa tumanida – **29,3** %, Yashnobod tumanida – **27,8** %, Yunusobod tumanida – **21,2** %, Chilonzor tumanida – **21,1** %,ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – **6,0** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar  
(ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **2 095,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **42,1** % ini tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan  
amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami  
importdagi ulushi, % da**

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida – **62,6** %, Mirobod tumanida – **58,6** %, Yashnobod tumanida – **54,1** %, Olmazor tumanida – **48,1** %, Sirg'ali tumanida – **48,0** %, Yangihayot tumanida – **44,0** %, hamda Bektemir tumanida **43,1** % ni tashkil etdi.

Toshkent sh	42,1
Uchtepa	62,6
Mirobod	58,6
Yashnobod	54,1
Olmazor	48,1
Sirg'ali	48,0
Yangihayot	44,0
Bektemir	43,1
Yakkasaroy	42,0
Chilonzor	37,4
Shayxontohur	33,3
Yunusobod	31,2
Mirzo Ulug'bek	23,0
	10,3

# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

45,0 %

Yuk  
tashishda

59,8 %

Yuk  
aylanmasida

73,6 %

Yo'lovchi  
tashishda

80,3 %

Yo'lovchi  
aylanmasida

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **45,0** % ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,9** % ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **59,8** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9** % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **73,6** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,5** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **80,3** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




2024- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma 4 280 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 1 529 (35,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 2 382 (55,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 369 (8,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) xizmatlar sohasida – 42,2 % (1 806 ta), savdoda – 36,0 % (1 540 ta), sanoatda – 14,8 % (634 ta), qurilishda – 6,8 % (289 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 0,3 % (11 ta)ni tashkil etdi.

**2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2024- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi

470	Mirzo Ulug‘bek	11,0
464	Yunusobod	10,8
452	Chilonzor	10,6
430	Yakkasaroy	10,0
410	Mirobod	9,6
405	Olmazor	9,5
375	Yashnobod	8,8
374	Uchtepa	8,7
359	Shayxontohur	8,4
277	Sirg‘ali	6,5
152	Bektemir	3,6
112	Yangihayot	2,6


**Soni, birlikda (ta)**

**Ulushi, foizda**

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Mirzo Ulug‘bek (**470** ta), Yunusobod (**464** ta), Chilonzor (**452** ta), Yakkasaroy (**430** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **929** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **1 529** taga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **600** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **3 445** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **2 382** ta yoki **1 063** taga kamaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **414** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **369** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **45** taga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning I choragida **1 599** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **1 489** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **110** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning I choragida **2 258** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning I choragida **1 945** ta yoki **313** taga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019-yilning I choragida **322** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **401** tani tashkil etib, **79** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **19,4** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **35,7** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **16,3** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **72,0** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning II choragida **55,7** % yoki **16,3** % kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **8,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning II choragiga kelib ham, bu ko‘rsatkich **8,6** % bo‘lgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **38,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **44,0** % ga yetgan yoki 2019-yilning II choragida nisbatan **5,7** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining ulushi 2019-yilning II choragida **54,0** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvariyunda **57,4** % yoki **3,4** % oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019-yilning II choragida **7,7** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **11,8** % yoki **4,1** % oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning I Ichoragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **46,3** % ni, savdoda – **35,2** % ni, sanoatda – **12,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **41,1** % ni, savdoda – **36,3** % ni, sanoatda – **15,9** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **37,5** % ni, savdoda – **34,3** % ni, sanoatda – **16,6** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,9** % ni, savdoda – **35,1** % ni, sanoatda – **15,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **43,1** % ni, savdoda – **36,0** % ni, sanoatda – **14,1** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,4** % ni, savdoda – **33,9** % ni, sanoatda – **18,7** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da**


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	42,4	42,0	15,6
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	25,3	65,8	8,9
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	33,4	60,5	6,1
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	22,3	70,4	7,3
<b>Raqobat muhiti</b>	33,0	61,6	5,5

	Yaqin 6 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiyligi aylanmasi</b>	48,0	46,6	5,3
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	26,4	69,9	3,7
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	31,6	64,5	3,8
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	25,7	69,3	4,9
<b>Raqobat muhiti</b>	32,7	63,1	4,2

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

**2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin  
6 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli